

FRAZEOLOGIZMLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI (italyan tilidagi iboralar misolida)

Behzod Xudoyqulov,

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o’qituvchisi
bekhzod338@gmail.com*

ANNOTATSIYA

*Tilshunoslik bo’limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlarni o’rganishga qaratiladi. **Frazeologizm**— ikki yoki undan ortiq so’zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o’zaro bog’liq so’z birikmasidir.. Frazeologizm so’z kabi lug’aviy birlik hisoblanadi. Ular ham so’z kabi tilda tayyor holda mavjud bo’lganligi sababli nutq hodisasi emas, balki til hodisasi. Ushbu maqolada frazeologizmlarning o’rganilishi, shakllanish bosqichlari hamda ularning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so’zlar:** frazeologiya, frazeologizm, ibora, frazeologik birliklar, frazeologiyaning o’rganilishi*

НЕКОТОРИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Бехзод Худайкулов,

*Денауский институт предпринимательства и педагогики.
bekhzod338@gmail.com*

АННОТАЦИЯ

Фраzeология— раздел лингвистики, изучающий устойчивые речевые обороты и выражения—фраzeологические единицы. . Фраzeологизмы – это особые выражения, устойчивые сочетания слов. Объясняя их значение, мы имеем в виду смысл всего словосочетания в целом, а не отдельных слов. Совокупность фраzeологических единиц какого-либо языка также называется его фраzeологией Данная статья посвящена актуальной проблеме современной лингвистики — изучению фраzeологии.

***Ключевые слова:** фраzeология, фраzeологизмы, исследование фраzeологизмы.*

ABOUT FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Bekhzod Khudaykulov,

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
bekhzod338@gmail.com*

ABSTRACT

Phraseology is the branch of lexicology specializing in word-groups which are characterized by stability of structure and transferred meaning. Phraseological units are set expressions and their phraseological stability distinguishes them from free phrases and compound words. This article is devoted to the study of the phraseology.

Keywords: *phraseology, phraseological units, study of phraseology.*

Frazeologizmlar tuzilishi, leksik–semantik, funksional–uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o‘ziga xos shakllanish xususiyatlariga ega bo‘lgan til birligidir. Frazeologiya – tilshunoslikning biror tilga xos barqaror so‘z birikmalarini va iboralarni o‘rganadigan bo‘lim.

Tilshunoslikda frazeologiya atamasi Sharl Balli tamonidan ishlatilib, stilistika fani bilan qo‘shib o‘rganilgan, lekin frazeologiyani fan sifatida tan olish fikrini bildirgan taniqli tilshunos olim prof. E. F. Polivonovdir. Shu fikrni qullab quvvatlagan olimlardan yana biri mashhur tilshunos olim V.V.Vinogradovdir. U o‘zining qator ilmiy tadqiqotlarida rus tilidagi frazeologik birikmalar ta‘limotlarni yig‘adi va ularni semantik jihatdan guruhlarga bo‘lib chiqadi. E.D.Polivanov va V.V.Vinogradovlar tomonidan o‘rtaga tashlangan frazeologiya haqidagi fikrlar keyinchalik bu sohada ko‘plab tadqiqotlarning yuzaga chiqishiga turtki bo‘ldi. Lekin hozirga qadar frazeologiyani fan sifatida qarash yoki qaramaslik haqidagi fikrlar o‘z yechimini to‘laligicha topgan emas. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va turg‘un iboralar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) orasidagi bir qancha farqlarga qarab bir qancha olimlar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma‘noda izohlaydilar. Uni keng ma‘noda anglaganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya ichiga maqol va matallar, xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan iboralar, bir qancha so‘zlashuv shakillarini (salomlashish, xayrlashish iboralarini) ham kiritishadi. Ammo frazeologiyani keng ko‘lamda tushunish masalasi haligacha ham o‘z yechimini topgani yo‘q desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Frazeologiyaning tilshunoslikning o‘ziga xos sohasi sifatida rivojlanishi mashaqqatli yo‘llarni boshdan kechirdi. Hatto atoqli ingliz tilshunosi Smiritskiy ham frazeologiyaning alohida tilshunoslik sohasi ekanligi tarafdori bo‘lgan. — Frazeologik birikmalar nazariyasi bilan leksikologiyaning bir bo‘limi bo‘lgan frazeologiya o‘rganishiga qaramasdan, u tilning sintaktik qismida o‘rganilishi zarur. Agar biz frazeologiyani alohida soha deb tan olmaydigan bo‘lsak, uni alohida fan deb ayto olmaymiz degan edi Smiritskiy —”Лексикология англисково языка” asarida. [4; 53 b.]

O‘zbek tilining frazeologik boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan mukammal tadqiqotlarga egamiz. Adabiy til lug‘at tarkibining taraqqiyoti va boyishi xalq shevalari bilan uzviy va chambarchas bo‘g‘liqdir. Adabiy til normalarini belgilashda xalq shevalarining leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga suyanadi va ma’lum o‘ziga xos qonuniyatlar bilan rivojlanadi. Shunday ekan milliy tilning xalq shevalaridagi ko‘chma ma’noli iboralarni o‘rganish ham hozirgi o‘zbek adabiy tili taraqqiyotining, uning boyib borish yo‘llarini belgilovchi omillardan biri bo‘ladi.

O‘tgan asrning 50-yillarigacha frazeologiya hali o‘zbek tilshunosligi tarkibida mustaqil soha sifatida shakllanib yetmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma’lumotlar turg‘un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o‘zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Bunday ishlar A.G‘ulomov, U.Tursunov, V.Abdullayev, H.Zarif, N.Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansubdir. Jumladan, A.Sa’diy, V.Abdullayev kabi adabiyotshunoslarning A.Navoiy asarlarida turg‘un birikmalar, xalq iboralarining qo‘llanilishiga oid fikrlari hozir ham o‘z qimmatini saqlab kelmoqda. O‘zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar o‘tgan asrning 50-yillarining boshida yuzaga keldi. Ular qatoriga Sh.Rahmatullayevning ishlarini kiritish mumkin. Masalan, Sh.Rahmatullayev idiomatik so‘zlar haqidagi fikrini rivojlantirib, til birliklarini etimologik jihatdan qo‘shma so‘zga teng idiomatik so‘zlar deb tahlil qilgan. Uning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasining yana bir xarakterli tomoni shundaki, undan frazeologik omonimlarni frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalardan farqlashga harakat qilinganligidir. Sh.Rahmatullayevning talqiniga ko‘ra o‘zaro frazeologik omonimlar va frazeologik paronimlar shuningdek frazeologik omoformalar va frazeologik paraformalar bir-biriga shu qadar o‘xshash bo‘ladiki, ulardan biri o‘rniga ikkinchisini xato ishlatib yuborish mumkin. Agar iboralar o‘zaro tarkibidagi biror so‘z komponenti bilangina farq qilsa, ularni frazeologik paronimlar deb yuritish mumkin bo‘ladi. Masalan, “ko‘nglini ko‘tarmoq” – “ko‘ngli ko‘tarildi” va “ko‘nglini tog‘day ko‘tarmoq” – “ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi”. Agar ba’zi iboralar biri ikkinchisida yo‘q grammatik shakllanish sistemasiga ega bo‘lsa, frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Masalan, “jon(i)kirdi” – “jonini kirgizmoq” va “jon kirdi” – “jon kirgizmoq” kabilar. So‘nggi yarim asr davomida frazeologiya jahon tilshunosligining diqqat markazida bo‘ldi, bir qator monografik ilmiy izlanishlar natijasida uning ob‘yekti aniqlandi, tadqiqot metodlari ishlab chiqildi va bu fan tilshunoslikning boshqa

sohalari qatorida o‘z o‘rnini shakllantirdi. Hozirgi kunda bu termin ikki ma’noda qo‘llanilmoqda.

1. Tildagi frazeologik birikmalarning jami;
2. Turg‘un iboralarni o‘rganuvchi soha, fan.

So‘nggi yillarda ko‘plab tillar materiallari asosida olib borilgan keng ko‘lamli frazeologik tadqiqotlar natijasida frazeologizmlar quyidagicha ta’riflanmoqda.

Ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan, yaxlit frazeologik ma’no anglatuvchi turg‘un til birligi frazeologizm yoki frazeologik birikma (ibora) deyiladi. Masalan, italyan tilida:

1. **Dare una mano** – yordam qo‘lini cho‘zmoq/yordam bermoq.
2. **Alzare le mani** - qo‘l ko‘tarmoq/urmoq. Bu iborani – savolga javob berish uchun qo‘l ko‘tarmoq ma’nosi ham mavjud.
3. **Ha le mani bucate** – Qo‘li ochiq, sahiy;
4. **In buone mani** – Ishonchli qo‘llarda, himoyada bo‘lmoq;
5. **Mettersi una mano sulla coscienza** - Aql bilan/rahm – shavqat bilan munosabatda bo‘lmoq/yordam bermoq.
6. **Mette le mani avanti** – *Oldini ol, himoyalan* – Biror salbiy holatni, hafagarchilikni oldini olishda ishlatiladi.
7. **A mano a mano** - *Sekin-sekin, bosqichma-bosqich*.
8. **Capitare tra le mani** -(Biror imkoniyat) *qo‘lida bo‘lmoq, ko‘zlagan imkoniyati qo‘lida bo‘lmoq*.
9. **Una notizia di prima mano** – *Birinchi marta aytilgan (hali tarqalmagan) yangilik* ga nisbatan ishlatiladi.
10. **Di seconda mano** - *Ishlatilgan, qo‘ldan – qo‘lga o‘tgan narsa buyum (avtomobil)* ga nisbatan ham ishlatiladi.
11. **Mordersi le mani** – (o‘tkazib yuborilgan imkoniyat, vaziyatda) - *g‘azablanish, g‘azabdan qo‘lini tishlash* ma’nolarida keladi.
12. **Chiedere la mano** - *Qo‘lini so‘ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so‘ramoq)* ma’nosida ishlatiladi.
13. **Prendere per mano** – *Yordam bermoq, to‘g‘ri yo‘lni korsatmoq.*

kabi iboralar bunga misol bo‘ladi.

O‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab o‘zbek frazeologiyasini o‘rganish ishi quyidagi ikki asosiy yo‘nalishda rivojlandi:

- a) o‘zbek tili frazeologik birliklarining ayrim struktural tiplari maxsus o‘rganila boshladi;
- b) frazeologik birliklarning badiiy uslubiy xususiyatlari o‘rganildi.

G.Salomov o‘zbek tilshunosligi uchun g‘oyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimasini bilan maxsus shug‘ullangan olimdir. Olimning ta’kidlashicha, “Maqol-xalq aql idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari majmuyi, turmushdagi turli voqea hodisalarga munosabatining ifodasidir”. Frazologizmlarni o‘rganishda ularni o‘zbek va boshqa tillar frazeologizmlari bilan qiyosiy o‘rganish ham maqsadga muvofiq ko‘rinadi. N.Turopovaning “Yapon va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish” nomli ilmiy maqolasida shunday fikrlar ilgari surilgan. Frazologik iboralar nutqning ta’sirchanligini, emotsional – ekspressivligini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida nutqimiz ko‘rki hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan yapon tili frazeologizmlarining xususiyatlarini o‘rganib, ularni o‘zbek tilida ifodalash usullarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Har ikkala tildagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganishda ularning mazmun jihatdan bir - biriga mos kelishi yoki qisman mos kelishi, o‘xshashligiga hamda bir tilda mavjud bo‘lgan frazeologizmlarning ikkinchi tilda na ekvivalentiga, na variantiga egaligiga e’tiborni qaratish lozim. N.Turopova frazeologizmlarni quyidagicha guruhlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi.

1. Har ikki tilda mavjud bo‘lgan ekvivalent frazeologizmlar. Ular mazmun, shakl, ekspressiv-stilistik xususiyatlarni saqlagan bo‘lishi lozim.

2. Har ikki tilda o‘zaro o‘xshash bo‘lgan frazeologizmlar. Ular mazmun jihatdan o‘xshash stilistik xususiyatlarni o‘zida saqlagan, lekin obrazli asosi turlicha bo‘lgan frazeologik variantlardir. Masalan, italyan tildan tarjima qilinganda:

Dare a vedere – Sezdirmoq, namoyon qilmoq.

Dare coraggio - Ruhlantirmoq.

Dare da fare - Vazifa bermoq.

Prendere in giro – Mazax qilmoq

Essere al settimo cielo – Baxtga/ quvonchga to‘la bo‘lmoq.

Essere di mezzo – Ishtirok etmoq, o‘yinda bo‘lmoq.

3. Mazmuni kontekst orqali aniqlanadigan, milliy urf-odatni ifodalovchi frazeologizmlar.

Frazeologik ekvivalent tanlashda tarjimon albatta kontekstda anglatgan mazmunga e’tibor berishi lozim, aks holda, tanlangan ekvivalent matnda ifodalangan mazmunga to‘g‘ri kelmay, fikriy g‘alizliklarni keltirib chiqaradi. Olimlarning ta’kidlashlaricha, tarjima jarayonida bir tilga xos bo‘lgan grammatik vositalarni albatta ikkinchi tilda grammatik vositalar orqali berish shart emas. Bunday hollarda tarjimada vaziyat yo kontekstga alohida e’tibor qaratish lozim. Asosiysi, tarjimada

soʻzlar kabi frazeologizmlarning anglatgan maʼnosini, emotsional – ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks ettirish zarur.

Frazeologizmlarni nutqni bezovchi vosita sifatida oʻrganish umuman xato hisoblanib, ular ham boshqa til birliklariga oʻxshab yuqori informativ shakldagi xususiyatga ega boʻlish bilan birgalikda, tilda nominativ va kommunikativ vazifa bajaruvchi birliklar hisoblanadi. Frazeologizmlar universal til vositalari boʻlib, ularsiz til mavjud emas. Frazeologizmlarning stilistik imkoniyati oʻta muhimdir. Frazeologik stilistika, frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlarini tadqiq etadi va bu sohada leksik uslubshunoslik tajribasiga, turli stilistik birliklar tahliliga tayanadi. Zero, frazeologik birliklar tilda nominativ funktsiya bajarish bilan bir qatorda, malum bir emotsionallikka, ekspressiv oʻziga xosliklarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Til tarixi hamda etimologiya frazeologik birliklarning etimologik tahlilida oʻziga xos oʻrin egallaydi.

Tillardagi turgʻun iboralarning ilmiy tasnifi birinchi navbatda, frazeologizmlarga berilgan atamalarni tartibga solishdan iborat boʻlishi kerak. Tilshunoslikda turgʻun soʻz birikmalarini ifodalash uchun turli terminlardan foydalanilmoqda. Mazkur holat ushbu turgʻun soʻz birikmalari tabiatining murakkabligi bois yuzaga kelmoqda. Ular semantik, struktural va funksional jihatdan murakkab sanalishadi. Shunga koʻra, frazeologizmlar struktural-semantik, stilistik, semantik, kompleks, gapdagi sintaktik funktsiyasi va boshqa prinsiplar asosida klassifikatsiya qilinadi. Anʼanaviy klassifikatsiya usullaridan biri sifatida struktural-semantik tamoyil asosidagi klassifikatsiya tan olinadi. Unga koʻra turgʻun soʻz birikmalari juft soʻzlar, idiomalar, hikmatli soʻzlar (aforizmlar), maqollarga boʻlinadi. Turgʻun soʻz birikmasi albatta kamida ikkita soʻzdan iborat boʻlishi kerak. Juft soʻzlar bir xil soʻz turkumiga tegishli boʻlgan birliklardan tashkil topgan turgʻun frazeologik maʼnoli iboralar sanaladi. “Idioma” termini grek tilidan olingan boʻlib, haqiqiy, asl degan maʼnolarni ifodalaydi. Idiomalar turgʻun iboralar boʻlib, voqea, hodisa va predmetlarni ifodali tasvirlash maqsadida ishlatiladigan, maʼnosi ularni tashkil qiladigan komponentlar maʼnolari yigʻindisidan kelib chiqmaydigan, yangi frazeologik maʼno kasb etuvchi turgʻun birikmalardir. Baʼzi bir idiomalar maʼnosi boshqa bir soʻz bilan ham ifodalanishi mumkin, lekin idiomadagi konnotativ maʼno, stilistik oʻziga xoslik mazkur sinonim soʻz bilan toʻla qamrab olinmaydi.

Taʼkidlab oʻtganimizdek, V.V.Vinogradovning rus tili frazeologizmlari asosida yaratilgan semantik klassifikatsiyasi koʻplab tillardagi turgʻun birikmalar tasnifini shakllantirishda katta ahamiyatga ega boʻldi. Aniqroq aytganda, olim yaratgan klassifikatsiya vositasida frazeologizmlarning boshqa tillarda ham uch guruhi

mavjudligi isbotlandi [3;57]. Ushbu klassifikasiyaga ko‘ra, frazeologizmlar quyidagicha tasniflangan:

1. Frazeologik chatishmalar. Ushbu guruhga to‘la ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, semantik jihatdan qismlarga ajralmaydigan va umumiy ma’nosi birikmani tashkil etuvchi komponentlarning leksik ma’nosidan kelib chiqmaydigan til birliklari kiradi. Masalan, **Chiedere la mano** - *Qo’lini so’ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so’ramoq)* ma’nosida ishlatiladi.

2. Frazeologik birliklar. Ushbu guruhga yaxlit ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan iboralar kiradi. Ularning frazeologik chatishmalardan farqi shuki, umumiy ma’nosi tashkil etuvchi komponentlar ma’nosidan kelib chiqishi mumkin. Masalan, **Dare una mano** – yordam qo’lini cho’zmoq/yordam bermoq.

In buone mani – Ishonchli qo’llarda, himoyada bo’lmoq;

3. Frazeologik birikmalar. Ushbu guruhga qisman ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, ma’no motivasiyasi mavjud, sintraktik nuqtai nazardan tarkibiy qismlari osongina ajratilishi mumkin bo‘lgan birikmalar kiradi. Bunday birikmalar komponentlari sinonimlar bilan almashtirilishi ham mumkin. Misol uchun, **Alzare le mani** - qo’l ko’tarmoq/urmoq. Bu iborani – savolga javob berish uchun qo’l ko’tarmoq ma’nosi ham mavjud.

I.I.Chernisheva turg‘un so‘z birikmalarining bir vaqtning o‘zida ham grammatik, ham semantik, ham stilistik xususiyatlarini inobatga oluvchi kompleks tamoyillarni ishlab chiqdi. Bunga ko‘ra bir tomondan frazeologizmlarning so‘zdan farqi aniqlansa, ikkinchi tomondan ularni frazeologik xususiyatga ega bo‘lmagan turg‘un so‘z birikmalaridan ajratib olish mumkin bo‘ladi.

REFERENCES

1. Анипкина Л.Н. Оценочные высказывания в прагматическом аспекте // Филологические науки. – М., 2000. - №2. – С.58-65.
2. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л.: ЛГУ, 1981.-324с.
3. Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс.... канд. фил. наук.– Краснодар: КГУ, 1995. – 23с.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. –М. 1972. – 466с.
5. E. Jafrancesco con la collaborazione di F. Fiesoli “Parla e scrivi” la lingua Italiana come L2 a livello elementare e avanzato.
6. Gianluca Aprile. Italiano per modo di dire: Alma Edizione - Firenze, 2008.

-
7. Ковалев Ф.В. Итальянско-русский и русско-итальянский словарь. © 2001
Zanichelli editore s.p.a – Bologna
8. <http://parliamoitaliano.altervista.org/proverbi-e-modi-di-dire-sul-cuore/>